

DINIY TARBIYA-PSIXOLOGIK BARQARORLIK NEGIZIDIR

Xo'jayeva Dilorom Otanazarovna

Xorazm viloyati Yangiariq tumani MMTBga qarashli

19-son maktabining amaliyotchi psixologi.

Anotatsiya: Bu maqolada ta'limda tarbiyaviy jarayonlarga alohida e'tibor qaratilishi lozimligi va tarbiyani mustahkamlovchi fikr mulohaza va takliflar yoritilgan

Kalit so'zlar: "Ta'lim", "Tarbiya", "Din", "Zamonaviylik", "Suitsid", "Urf-odat",

Аннотация: В этой работе раскрыты вопросы по усовершенствованию воспитательной работы в образовании учитывая просьбы пожелания.

Ключевые слова: Образование, Воспитание, Нация, Современность, Суицид.

RELIGIOUS UPBRINGING IS BASIS FOUNDATION OF MORAL UPBRINGING.

Annatation: The methodological recommendation emphasizes the need to pay special attention to the educational and upbringing progress and give suggestions that strengthen their education.

Keywords: education, upbringing, modernity, reading, custom.

Ta'lim islohotini muvafaqqiyati uning o'zgarib, rivojlanib borayotgan dunyoning talablariga javob berish bilan belgilanadi. Ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi har bir mutaxassis o'z sohasini mohir bilimdoni bo'lish bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiya faoliyatini olib borish bilan bog'liq zarur ijtimoiy komponentlarni ham o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Shu o'rinda bir savol tug'iladi tarbiyaviy islohotlarning muvafaqqiyati nima bilan belgilanadi. Buyuk adibimiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo xayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan gaplari hali xam o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q yo'qatmaydi xam. Chunki, o'smirlik yoshiga kelib shaxs shakllanayotgan bir davrda xulqidagi og'ishlarning asosiy sabablaridan biri bu tarbiyadagi xatolar va noto'g'ri dunyoqarash bo'lib qolmoqda. Albatta xulq og'ishiga yana bir qator sabablar xam yo'q emas, shulardan yana bir sabab deya hozirgi zamonaviy yoshlarda diniy tarbiyaning mukammal emasligi va yetishmasligidir. Chunki ohirgi paytlarda yoshlarimiz yevropaga intilib o'zining asl kim ekanligini, kimlarning avlodi ekanligini, qaysi masxabga, qaysi dinga e'tiqod qilayotganini unutib qo'yayotganlar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Yoshlar ongiga mustahkam o'rnashib qolgan "Zamonaviylik" so'zi niqobi ortida nimalar

turibdi. Yevropacha urf-odatları, anʼanalari, chet el bayramlari, soʻzlashuvidan tortib kiyinish madaniyati ham butunlay yurtimiz yoshlarining ongiga singib qolmoqda. Yoshlar nazarida bu shunchaki odat tusiga kirib qolgan. Singib qolish bilan bir qatorda oʻzining salbiy taʼsirlarini ham koʻrsatmay qolmayapti. Soʻnggi yillarda yoshlar oʻrtasida huquqbuzarlik holatlari, oʻz joniga qasd qilish, turli jinoyiy ishlarga va terroristik guruhlariga qoʻshilib qolish, bir-biriga nisbatan zoʻravonlik, diniy aqidaparastlik, holatlari judayam koʻpayib ketmoqda. Bunday noodatiy holatlarga barchamizning koʻzlarimiz va quloqlarimiz oʻrganib qolayotganligi ham achchiq haqiqat.

Bunday salbiy holatlar avj olishini tag zamirida yoshlarimiz ongidagi maʼnaviy immunitetning pastligi va diniy taʼlimotlar zahirasiining yetishmasligi emasmi?

Biz qaysi millatimiz? Qaysi din vakilimiz? Bizning oʻzligimiz oʻzbekligimiz qayerda qolayapti? Yosh avlod qayoqqa qarab ketayapti? Bunday savollar har bir oʻzligini tushungan shaxslarni qiynayapti albatta.

Yuqoridagi muommolarning yechimi sifatida bizning taʼlim tizimining hech boʻlmaganda boshlangʻich sinflarida mahsus islom dinini mukammal oʻrgatish uchun dars soatlari ajratilishi va fan sifatida oʻqitilishi lozim deb oʻylayman. Chunki din insonning eʼtiqodini mustahkamlovchi asosiy vositadir. Agar eʼtiqod mustahkam boʻlmasa yot gʻoyalar va notogʻri yoʻllarga qadam qoʻyish holatlari sodir boladi. Ushbu darslarni oddiy oʻqituvchilar emas, imom xatiblar, otin oyilar va maxsus bilim, koʻnikma, malaka, sertifikatga ega boʻlgan shaxslar oʻqitishlari maqsadga muvofiq. Ushbu fan darsliklari esa Oʻzbekiston Respublikasi musulmonlar idorasi tomonidan ishlab chiqilib amaliyotga tadbiiq qilinishi lozim.

Albatta tarbiyada mukammal formula yoʻqki, jamiyatda hamma bola bir xil darajada tarbiyalansa. Xar bir bola oʻziga xos ijtimoiy muhitda oʻsadi, tabiiyki unga ijobiy xamda salbiy taʼsirlar turlicha boʻladi. Bolani voyaga yetgunicha oq choyshabga oʻrab katta qilishning iloji yoʻq va doim xam bolaga yetarlicha eʼtibor qila olmaymiz. Qaysidir vaziyatda kimningdir eʼtiborsizligi, kimningdir aybi bilan bola “yomon bola”ga aylanib qolayapti. Bobo buvisi, ota-onasi, yaqinlarining eʼtiborsizligi, oʻz vaqtida bola bilan shugʻullana olmasligi natijasida yuzaga kelayotgan salbiy xususiyatlarini maktabdagi tarbiyaviy jarayonda oʻzlashtirsa ajab emas. Zero islom dini har doim insonlarni yaxshilikka yetaklagan ezgʻulik urugʻini sochishga hizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Psixokorreksion trening mashgʻulotlar xulqi oʻgʻishgan oʻquvchilar bilan psixologik korreksion-rivojlantiruvchi treninglar/ A.Abdullayev Toshkent 2017
2. “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning maʼnaviy-maʼrifiy asoslari”. Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent-2005